Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Maksadxon Xakimova – PhD, katta o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: maqsadxonhakimova@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3593-4888

ESTETIK TAMOYILLAR VA ADABIY MUHIT TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1950-1960-yillarda Londonda shakllangan “The Group” ingliz she’riy harakatining estetik tamoyillari va adabiy muhitdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda guruh vakillarining poetik qarashlari, she’riyatdagi uslubiy yangiliklari hamda ularning ingliz modern va postmodern adabiyoti rivojiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, “The Group” harakatining “The Movement” adabiy oqimi bilan mushtarak va farqli jihatlari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqolada Filipp Larkin, Donald Devi, Tom Gan kabi shoirlarning ijodi misolida realizm, intellektualizm va poetik aniqlik tamoyillari tahlil etiladi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-adabiy yondashuv, matnshunoslik va qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Natijada, “The Group” ingliz she’riyatida yangi estetik qarashlarni shakllantirgan muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi.
Kalit so‘zlar: ingliz she’riyati, estetik tamoyillar, adabiy muhit, intellektualizm.

Maksadkhon Khakimova – PhD, senior teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

AESTHETIC PRINCIPLES AND ANALYSIS OF THE LITERARY ENVIRONMENT

Abstract. This article analyzes the aesthetic principles of “The Group,” an English poetic movement formed in London during the 1950s and 1960s, and examines its role within the literary environment. The study explores the poetic views of the group’s representatives, their stylistic innovations in poetry, and their influence on the development of English modernist and postmodern literature. In addition, the similarities and differences between “The Group” and “The Movement” literary trend are comparatively examined. Using the works of poets such as Philip Larkin, Donald Davie, and Thom Gunn as examples, the principles of realism, intellectualism, and poetic precision are analyzed. The research methodology is based on historical-literary approach, textual studies, and comparative analysis. As a result, “The Group” is evaluated as an important literary phenomenon that shaped new aesthetic perspectives in English poetry.
Keywords: English poetry, aesthetic principles, literary environment, intellectualism

Максадхон Хакимова – PhD, старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ И АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. В данной статье анализируются эстетические принципы английского поэтического движения “The Group”, сформировавшегося в Лондоне в 1950–1960-х годах, а также его место в литературной среде. В исследовании рассматриваются поэтические взгляды представителей группы, stylistические новшества в поэзии и их влияние на развитие английской модернистской и постмодернистской литературы. Кроме того, в сравнительном аспекте изучаются общие и отличительные черты движения “The Group” и литературного

течения “The Movement”. На примере творчества таких поэтов, как Филип Ларкин, Дональд Дэви и Том Ганн, анализируются принципы реализма, интеллектуализма и поэтической точности. Методология исследования основывается на историко-литературном подходе, текстологии и сравнительном анализе. В результате “The Group” оценивается как важное литературное явление, сформировавшее новые эстетические взгляды в английской поэзии.

Ключевые слова: английская поэзия, эстетические принципы, литературная среда, интеллектуализм.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmida ingliz she’riyati modernizmga xos murakkab poetik shakllardan asta-sekin voz kechib, mazmun va ifodadagi aniqlik, sodda uslub hamda kundalik hayot manzaralarini badiiy tasvirlashga yo‘nala boshladi. Ushbu estetik o‘zgarish jarayonida 1950–1960-yillarda Londonda shakllangan “The Group” adabiy harakati muhim adabiy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur guruh atrofida birlashgan shoirlar she’riyatda sun’iy murakkablikdan qochish, tilning tabiiyligi va intellektual nazoratga asoslangan poetik ifodani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Natijada “The Group” urushdan keyingi ingliz she’riyatining estetik yo‘nalishi va poetik tamoyillarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu jihatdan mazkur mavzu nafaqat alohida ijodkorlar faoliyatini, balki davr adabiy muhitining umumiy rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning asosiy maqsadi “The Group” harakatining shakllanish omillari, uning vakillari ijodidagi estetik qarashlar hamda guruhning ingliz adabiy jarayonidagi o‘rnini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda harakatning tarixiy asoslari, asosiy vakillar ijodi va uning “The Movement” bilan aloqadorligi izchil ravishda yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“The Group” adabiy harakati yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan urushdan keyingi ingliz adabiyoti va she’riyatidagi estetik o‘zgarishlarni o‘rganish doirasida shakllangan. Tadqiqotchilar mazkur guruh faoliyatini XX asr o‘rtalarida ingliz she’riyatida yuz bergan poetik yangilanish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydilar. Xususan, britaniyalik adabiyotshunos Blake Morrison “The Movement” asarida 1950-yillar adabiy muhitini ratsional tafakkur, an’anaviy poetik shakllar hamda nazoratli uslubning qayta tiklanishi bilan izohlaydi (Morrison, 1980). Shoir va tanqidchi Alfred Alvarez esa “The New Poetry” kitobida ushbu davr she’riyatini modernistik murakkablik va mavhumlikka nisbatan yuzaga kelgan estetik reaksiya sifatida tahlil qiladi (Alvarez, 1962).

Shuningdek, Neil Corcoran “The Group” vakillarining poetik qarashlari va estetik tamoyillarini, ayniqsa, Philip Larkin ijodi misolida yoritib beradi hamda guruh she’riyatida tilning aniqligi va intellektual nazorat muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydi (Corcoran, 1997). Andrew Motion esa Philip Larkin hayoti va ijodini tahlil qilish orqali “The Group”ning ijodiy muhiti hamda adabiy aloqalarini kengroq tarixiy kontekstda ochib beradi (Motion, 1993). Adabiyot tarixchisi Michael Schmidt ingliz she’riyati taraqqiyotini umumiy adabiy evolyutsiya nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, “The Group”ni urushdan keyingi ingliz she’riyatining muhim estetik bosqichlaridan biri sifatida baholaydi (Schmidt, 1999).

Mazkur tadqiqotda tarixiy-adabiy tahlil, qiyosiy metod va matnshunoslik yondashuvlaridan foydalanildi. Tarixiy-adabiy metod orqali “The Group” harakatining yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar va tarixiy sharoitlar o‘rganildi. Qiyosiy metod asosida guruh vakillari ijodi o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli poetik xususiyatlari aniqlashtirildi. Matnshunoslik yondashuvi yordamida esa she’riy matnlarning uslubiy qurilishi, ritmik tizimi, mavzu doirasi va poetik ifoda vositalari tahlil qilindi. Xususan, Philip Larkin hamda boshqa shoirlar ijodida kundalik hayot tasviri, sodda poetik til va intellektual nazoratning namoyon bo‘lish shakllari ilmiy asosda yoritildi. Shu tariqa, turli ilmiy manbalarni o‘zaro qiyoslash orqali “The Group” harakatining asosiy estetik tamoyillari hamda uning ingliz adabiy jarayonidagi o‘rni tizimli ravishda tahlil qilindi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada “The Group” adabiy harakatining shakllanishi, estetik tamoyillari va urushdan keyingi ingliz she’riyatidagi o‘rnini o‘rganishda kompleks ilmiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning naza-

riy-metodologik asosini tarixiy-adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik metod, matnshunoslik yondashuvi hamda interpretativ tahlil usullari tashkil etdi. Ushbu metodlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilib, mavzuning ilmiy jihatdan izchil va tizimli yoritilishiga xizmat qildi.

Tarixiy-adabiy tahlil metodi orqali XX asrning ikkinchi yarmida Angliyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning she’riyat taraqqiyotiga ta’siri o‘rganildi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ingliz jamiyatida yuzaga kelgan ruhiy va estetik o‘zgarishlar “The Group” harakatining shakllanishiga qanday zamin yaratgani ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Mazkur metod guruh faoliyatining tarixiy kontekstini aniqlash va uning adabiy jarayondagi o‘rnini baholash imkonini berdi.

Qiyosiy-tipologik metod yordamida “The Group” vakillari ijodi o‘zaro taqqoslandi hamda ularning poetik qarashlaridagi umumiy va individual jihatlar aniqlashtirildi. Xususan, Philip Larkin, Kingsley Amis va boshqa shoirlar ijodidagi tilning soddaligi, kundalik hayot tasviri, ratsional yondashuv hamda intellektual nazorat kabi poetik tamoyillar qiyosiy asosda tahlil qilindi. Shuningdek, “The Group” va “The Movement” adabiy oqimlari o‘rtasidagi estetik yaqinlik va farqlar ham mazkur metod orqali yoritildi.

Matnshunoslik yondashuvi asosida she’riy matnlarning kompozitsion qurilishi, poetik uslubi, ritmik tizimi va badiiy tasvir vositalari chuqur tahlil etildi. Interpretativ tahlil esa she’rlardagi ramziy ma’nolar, muallif pozitsiyasi va estetik qarashlarni aniqlashda muhim metod sifatida qo‘llanildi. Natijada, tadqiqot davomida turli metodlarning integratsiyasi “The Group” harakatining ingliz she’riyati taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “The Group” adabiy harakati urushdan keyingi ingliz she’riyatida yangi poetik tamoyillarning shakllanishida muhim o‘rin egallagan. Harakat vakillari she’riyatda murakkab modernistik uslubdan voz kechib, sodda, aniq va ratsional ifoda usulini rivojlantirishga intilganlar. Tahlillar davomida guruh shoirlari ijodida kundalik hayot tasvirlari, insonning ichki kechinmalari va oddiy voqelik orqali chuqur falsafiy mazmun yaratish asosiy poetik xususiyatlardan biri ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, Philip Larkin she’riyati misolida vaqt, yolg‘izlik, o‘tkinchilik va insoniy begonalashuv mavzularining sodda poetik vositalar yordamida ifodalanganligi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida “The Group” seminarlarining ijodiy jarayondagi o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Seminarlar shoirlarga o‘z asarlarini tanqidiy muhokama qilish, poetik uslubni takomillashtirish va ijodiy intizomni mustahkamlash imkonini bergan. Natijada, guruh ichida o‘zaro tahlil va tahrir madaniyati shakllangan. Bu esa she’riy matnlarda til aniqligi, ritmik muvozanat va intellektual nazoratning kuchayishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalari “The Group” va “The Movement” o‘rtasida yaqin estetik aloqalar mavjudligini ham ko‘rsatdi. “The Group” amaliy ijodiy muhit sifatida “The Movement”ning nazariy-estetik qarashlarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Guruh shoirlari milliy adabiy an’analarni saqlagan holda, she’riyatni oddiy o‘quvchiga yaqinlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar. Shu tariqa, “The Group” ingliz she’riyatida soddalik, aniqlik va intellektual nazoratga asoslangan yangi poetik yo‘nalishning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

MUHOKAMA

“The Group” rasmiy manifestga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, muntazam adabiy seminarlar orqali shakllangan ijodiy hamjamiyat edi. Uning asosiy tashabbuskori Philip Hobsbaum bo‘lib, u Londonda yosh shoirlarni birlashtirib, she’rlarni ochiq tanqid qilish amaliyotini yo‘lga qo‘ydi. Bu jarayon ijodiy intizom va o‘zaro tahrir madaniyatini shakllantirdi, shuningdek, shoirlarga o‘z ishlarini tanqidiy nazorat ostida qayta ishlash imkonini berdi. Seminarlar faqat ijodiy uchrashuv emas, balki guruh a’zolariga bir-birining poetik qarashlarini o‘rganish va yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish maydoni bo‘ldi.

Blake Morrisonning ta’kidlashicha, ushbu doira “aniqlik, mantiq va nazoratga asoslangan poetikani targ‘ib qilgan” (Morrison, 1980). Bu jihat modernistik murakkab metaforalar va simvolizmga nisbatan muqobil yo‘l bo‘ldi, ya’ni shoirlar hissiy ortiqchalik va abstrakt simvolizmdan qochib, oddiy o‘quvchiga tushunarli, ammo chuqur ma’noli ifodani tanladilar. Kundalik hayot manzaralari: shahar ko‘chalari, temiryo‘l vokzallari yoki uy ichidagi oddiy vaziyatlar ular uchun falsafiy mushohadaga aylanishi mumkin bo‘lgan material sifatida xizmat qildi. Bunga Philip Larkinning “Ugly Sister” she'rini misol qilib keltirishimiz mumkin.

I will climb thirty steps to my room,Lie on my bed;Let the music, the violin, cornet and drumDrowse from my head.

Shoir uy ichidagi kundalik harakatlarni: xonaga chiqish, yotish, musiqa tinglash orqali o‘z ichki olamini tasvirlaydi. Oddiy vaziyatlar uning e’tiborini insoniy tajriba, tinchlik va estetik mushohada bilan bog‘laydi. Keyingi satrlarda shoir o‘zini tabiat bilan bog‘laydi:

Since I was not bewitched in adolescence-And brought to love,I will attend to the trees and their gracious silence,To winds that move.

Bu satrlar shuni ko‘rsatadiki, Larkin uchun oddiy manzaralar (o‘simliklar, shamol) kundalik hayotdan falsafiy tushunchalarni olib chiqish imkonini beradi. Ya’ni, shoir “The Group” tamoyiliga muvofiq, soddalik va kundalik voqelikni intellektual nazorat ostida chuqur ma’noga aylantiradi. Oddiy hayot tasviri shoirga inson tajribasining o‘tmish, vaqt va yolg‘izlik kabi mavzularini o‘rganish imkonini beradi.

A. Alvarezning fikriga ko‘ra, 1950-yillar she’riyati “hissiy ortiqchalikdan qochgan va an’anaviy shaklga qaytgan” (Alvarez, 1962). Aynan shu yondashuv Philip Larkin ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. N. Corcoran Larkin she’rlarini o‘rganib, shoirning mavzuga “oddiy voqelik orqali ekzistensial mazmun berish” qobiliyatini ta’kidlaydi (Corcoran, 1997). M. Schmidt ingliz she’riyati tarixini tahlil qilarkan, “The Group”ni modernizm va postmodernizm oralig‘idagi ko‘prik sifatida talqin qiladi (Schmidt, 1999). Guruh haddan tashqari eksperimental urunishlar orqali she’riyatni an’anaviy qoliplardan chiqarib, o‘quvchiga yaqinlashtirdi, shu bilan birga, intellektual teranlikni saqlab qoldi. Ular nazmni ijtimoiy tajriba va kundalik hayot bilan bog‘lash orqali zamonaviy ingliz poetikasini yangilashga harakat qildilar.

A. Motion Larkin biografiyasida guruh uchrashuvlarining ahamiyatini alohida ta’kidlab, ularni “ijodiy laboratoriya” deb atadi (Motion, 1993). Aynan shu muhit shoirlarning o‘z ustida ishlashiga, bir-birining ishlarini tahlil qilishga va poetik mukammallikka erishishiga xizmat qildi. Seminarlar va tanqidiy muhokamalar natijasida shoirlar ijodiy intizomni mustahkamlab, o‘z uslublarini yanada aniqlashtira oldilar.

“The Movement” kengroq madaniy oqim bo‘lsa, “The Group” uning amaliy shakli edi. Guruh shoirlari milliy an’ana va ratsionalizmni qadrlagan holda, she’riyatni o‘quvchi hayotiga yaqinlashtirdilar. Natijada, ingliz she’riyati yangi bosqichga ko‘tarilib, zamonaviy she’riyatga soddalik, aniqlik va intellektual nazoratga asoslangan yondashuv olib kirdi. Shu tarzda, “The Group” ingliz adabiyotida nafaqat shoirlar ijodiy rivojlanishiga, balki adabiy muhit va poetik tamoyillarni shakllantirishga ham sezilarli hissa qo‘shdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari “The Group” adabiy harakati urushdan keyingi ingliz she’riyatida soddalik, aniqlik va intellektual nazoratga asoslangan yangi estetik tamoyillarni shakllantirganini ko‘rsatdi. Guruh vakillari modernistik murakkablikdan voz kechib, kundalik hayot tasviri orqali chuqur falsafiy mazmun yaratishga erishganlar. Seminar shaklidagi ijodiy muhit shoirlar o‘rtasida tanqidiy tahlil va o‘zaro tahrir madaniyatini rivojlantirib, poetik sifatni oshirgan. Shuningdek, “The Group” “The Movement” g‘oyalarini amaliy jihatdan boyitib, ingliz she’riyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Umuman olganda, mazkur harakat zamonaviy ingliz poetikasining shakllanishida muhim estetik va tarixiy rol o‘ynagan.

ADABIYOTLAR

1. Morrison, B. (1980). *The Movement: English Poetry and Fiction of the 1950s*. Oxford University Press.
2. Alvarez, A. (1962). *The New Poetry*. Penguin Books.
3. Corcoran, N. (1997). *Philip Larkin*. Faber and Faber.
4. Motion, A. (1993). *Philip Larkin: A Writer’s Life*. Faber and Faber.
5. Schmidt, M. (1999). *Lives of the Poets*. Weidenfeld & Nicolson.